

XORIJIY TILLARNI O'ZLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Miliyeva Muattar Gaffarovna

O'zDJTU, pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti v.b.

psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD,

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17986433>

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'zlashtirishning o'ziga xos psixologik xususiyatlari batafsil yoritilgan. Psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy til, kommunikatsiya, pedagog, ijtimoiy-psixologik.

O'zbekiston kelajagi bo'lgan yoshlar har tomonlama aqliy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan bilimlarni, shu bilan birgalikda chet tillarini o'zlashtirishda, psixologik yondashuvlar, amaliy psixologik mashqlar asosida dars mashg'ulotlarni boyitib borishni talab qilinmoqda.

Shu boisdan, turli soha mutaxassislari o'z ona tilini mukammal bilish bilan bir qatorda, bir nechta xorijiy tillarni bilishi va muloqot qila olishi maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish va sohani rivojlantirish uchun tizimli ishlarni tashkil etish, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, buning uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish masalalarini pedagogik va psixologik jihatdan ilmiy izlanishlar olib borishni taqoza etmoqda. Buning sababini har yili Xorijiy tillarni o'zlashtirish ta'lim muassasalarida talabalar soni ortib borishida ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi kunda biz til o'rganishni nafaqat maktab, kollej, litsey va oliy yurtlar miqyosida, balki bog'cha tarbiylanuvchilari orasida ham ko'rishimiz mumkin. Bundan shuni ko'rishimiz mumkinki, Yurtimiz taraqqiy etayotgan bir bosqichda, jamiyatimizning eng yosh qatlami ham chet tillarini o'rganishga bel bog'ladi. Ma'lumki, ko'plab rivojlangan davlatlarning tillarini o'rganish, jahon ilm fani taraqqiyoti yutuqlarini o'rganishga va egallashga vosita vazifasini o'taydi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari jarayonida professor-o'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablarda ular ham xorijiy tillarni bilishi talabi qo'yilgan. Shu boisdan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyatining individual-psixologik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda katta yoshdagi professor-o'qituvchilarga xorijiy tillarni o'qitish tizimi yo'lga qo'yilmoqda.

Xorijiy til o'rganishning va uni o'rgatishning psixologik o'ziga xosligi chet tildagi matnni idrok etish, chet tilidagi so'zlarni xotirada saqlash bilan talabalar o'zga tillarni o'zlashtirish jarayonida ularning o'zga tildagi tafakkuri kengayib borishini ta'minlashning psixologik jihatlarini bilishni talab qiladi. Ta'lim muassasalarida xorij tillarni o'zlashtirish jarayoni talaba yoshlarning psixologik xususiyatlari, aqliy taraqqiyotining psixologik qonuniyatlaridan xabardor bo'lishi, talabaning psixologik taraqqiyotiga faol ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish ular bilan bo'ladigan munosabatlar uchun zarur psixologik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Xorijiy tillarni o'rganish jarayonida albatta shaxsni yosh psixologik xususiyatlari farq qiladi. Ta'lim muassasalarining barcha qatlamlarida xorijiy tillarga bo'lgan qiziqish va o'qitish tizimlarini kuchaytirishga oid o'quv mashg'ulotlari, darslik va o'quv qo'llanmalar amaliyotda

qo'llanilib kelmoqda. Shunday bo'lsada, ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar uchun va talaba yoshlar o'rtasida yangi zamonaviy ilg'or tajribalar ya'ni psixologik nuqtai nazardan qaraganda psixolingvistik bilimlar zarurati seziladi.

Talabalar oliy ta'lim muassasalariga faqat qoida va testlarni yodlash orqali emas, balki til ko'nikmalarini o'zlashtirgan holda o'qishga kirmoqda. Bunday talaba bilan shug'ullanish o'qituvchiga ham yengillik yaratadi. Pedagog talabada mazkur ko'nikmalarni rivojlantirishga emas, balki takomillashtirishga ko'proq e'tibor qaratilishi lozim. O'z navbatida, talabalar ham mutaxassislik fanlarini qiyinchiliksiz, mustaqil bemalol o'zlashtirishga qaratilgan innovatsion mashg'ulotlarni boyitish lozim.

Bugungi kunda barcha fanlarni o'qitish jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv keng tatbiq etilmoqda. Talaba yoshlarga fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka berishning o'zi yetarli emasligi, balki hosil qilingan tushunchalarni turli vaziyatlarda amaliy qo'llash layoqatini shakllantirish zarurligi ayon bo'lmoqda. Jahonda oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobat kurashi va "TOP" reytinglar yuritilishi oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishning marketing strategiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha izlanishlar olib borish dolzarbligi malakali xorijiy tillarni yaxshi o'zlashtirgan kadrlar bilan ta'minlashni talab qiladi.

Talabalar xorijiy tillarni o'zlashtirishini psixologik jihatdan o'rganishning zarurati va dolzarbligi bo'yicha ta'lim muassasalardagi pedagoglarga katta mas'uliyat yuklamoqda. Shu boisdan talabalar xorijiy tillarni o'zlashtirishning o'ziga xos psixologik xususiyatlari bo'yicha bir qator psixologik ilmiy tadqiqotlarni taqoza qiladi. Xorijiy tillarni o'zlashtirishda psixologik o'ziga xoslik va individual psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda o'quv mashg'ulotlari olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Oliy ta'lim muassasalari zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, ilg'or fan-texnika yutuqlarini egallagan intellektual kadrlarni tayyorlash hamda professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati va professional ta'lim beruvchilar orasida raqobatni yanada oshirish maqsadida yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish zarurati kelib chiqadi.

Psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni tasdiqladiki, tillarni o'rganish miyaning eng murakkab, "ijro etuvchi" funksiyalari uchun javob beradigan sohalarini rivojlantiradi. Bular, masalan, turli vazifalarni almashtirish, rejalashtirish, fikr yuritish, muammolarni hal qilish, axborotni filtrlash kabi jarayonlar asoslab o'tilmoqda. Shu jumladan, chet tilini o'rganish inson xotira va tafakkurni rivojlantiradi, insonning ichki dunyosini boyib borishini ta'minlaydi, ona tilining milliy madaniyati va xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi hamda stereotiplar yo'q qiladi degan ilmiy fikrlarni ilgari suradi.

G.A.Guseinovanning "Xorijiy tilni o'rganish uchun psixologik shartlar" ilmiy maqolasida zamonaviy dunyoda chet tillari tobora muhim ahamiyat kasb etishi, ularni o'rganish madaniyatlararo muloqotni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy shartlaridan biriga aylanib borishi va lingvistik o'ziga xoslikni shakllantirish vositasi sifatida ishlaydi deb ta'kidlab o'tgan. Xorijiy tillarini o'rganish jarayoni va uning samaradorligini oshirish uchun tegishli shart-sharoitlar shaxsning psixologik xususiyatlari katta ta'sir ko'rsatadi[2].

E.P.Ilin ingliz tilini o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlarida, xorijiy tillarini o'rganish nafaqat o'qituvchi faoliyatining uslubi va mazmuniga bog'liq, balki talabalarining shaxsiy psixologik xususiyatlariga, shuningdek ularni o'rganish jarayoniga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarga ham bog'liq - degan ilmiy fikrlarini berib o'tgan .

I.A.Zimnaya o'z tadqiqotida "...Chet tilini o'qitishga shaxsiy-faollik yondashuvi kitobida muhokama qilingan, shubhasiz, bugungi kunda chet tilini o'qitish psixologiyasining asosini tashkil etuvchi asosiy muammolarni tanlashni ham belgilab berdi".

J.C.Vigotskiy ilmiy ishlarida, xorijiy tilning o'quv predmeti sifatida o'ziga xos xususiyatlari va uni o'zlashtirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini ona tilini o'zlashtirish jarayoni bilan taqqoslaganda tahlil qilib, "ona tili, birinchi navbatda, shaxsning ijtimoiy tajribasi va shundan keyingina ushbu funktsiyani bajarish bilan birga o'z fikrlarini ifoda etish vositasidir" deb ta'kidlaydi.

N.V.Evdoksina "Texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarining psixologik xususiyatlari" nomli ilmiy maqolasida texnika sohasidagi talabalarda o'ziga ishonchni, kasbiy kompetentlikning va boshqada kognitiv jarayonlarning rivojlanishi haqida ilmiy xulosalar bergan. [5]

Ta'lim muassasalarida talaba yoshlarga ingliz tilini o'qitishning asosiy maqsadi chet tilida muloqot qilishga tayyorlashdir. Pedagoglar talaba yoshlarni har tomonlama xorij tillarni o'zlashtirishga yordam qiladi, shu bilan birga talabalarda psixologik o'ziga xoslik rivojlanib borishiga ham imkon yaratiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Милиева Муаттар Гаффаровна О психолингвистике и нейролингвистике билингвизма // Вопросы науки и образования. 2018. №8 (20). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-psiholingvistike-i-neyrolingvistike-bilingvizma> (дата обращения: 21.05.2024).
2. Miliyeva Muattar Gaffarovna. (2023). Influence of Bilingualism on Socio-Cognitive Personal Development. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 19, 61–64. Retrieved from <https://www.zienjournals.com/index.php/zjssh/article/view/3765>
3. Muattar Gaffarovna Milieva GENERAL CHARACTERISTICS OF TRAINING AS A MULTIFUNCTIONAL METHOD // Academic research in educational sciences. 2023. №TMA Conference. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/general-characteristics-of-training-as-a-multifunctional-method> (дата обращения: 21.05.2024).
4. Милиева Муаттар Гаффаровна Исторические предпосылки психолингвистики // Вопросы науки и образования. 2018. №6 (18). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/istoricheskie-predposylki-psiholingvistiki> (дата обращения: 21.05.2024).
5. Милиева Муаттар Гаффаровна Психолингвистические аспекты восприятия устной речи (зависимость восприятия от речевых характеристик говорящего) // European research. 2018. №1 (35). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/psiholingvisticheskie-aspekty-vozpriyatiya-ustnoy-rechi-zavisimost-vozpriyatiya-ot-rechevyh-harakteristik-govoryaschego> (дата обращения: 21.05.2024).
6. Абиева, Ю., & Милиева, М. (2024). Технологические компоненты системы формирования нравственной культуры учителя. Наука и инновации, 1(1), 59–62. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/ilm-fan-va-innovatsiya/article/view/32710>
7. Милиева, М. (2023). Psixologiyada motivatsiya muammosiga yondashuvlar

.Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 132–134.
извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24702>

8. Muattar Gaffarovna Miliyeva, . 2024. THE POWER OF BODY LANGUAGE. HOW TO LEARN TO SPEAK BODY LANGUAGE. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. 4, 11 (Nov. 2024), 32–37. DOI:<https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume04Issue11-06>.